

YOSHLAR

Молодежь

Узбекистана

OVOZI



IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

SAYLOV —

24

OKTABR 2021-YIL

O'ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI

IMKONIYAT VA MAS'ULIYAT

BUNAQASI

HALI

BO'LMAGAN!

Eng muhim siyosiy jarayonlardan biri — O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov kuni tobora yaqinlashmoqda. Qayd etilishicha, bugungi kunda mamlakatimizda ilk bor saylovda ishtirok etuvchi yoshlar 880 ming nafarni tashkil etadi.

Davomi 3-sahifada.



YANGRAYVER SIN BAXSHILARNING DOSTONLARI



Nukus shahrida 17-sentabr kuni II Xalqaro baxshichilik san'ati festivalining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda madaniyat va san'at namoyondalari, jamoatchilik vakillari, san'at muxlislari, xorijlik mehmonlar ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning II Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ishtirokchilariga tabrigini O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari,

turizm va sport vaziri Aziz Abduhakimov o'qib eshittirdi.

Asrlar osha ohorini to'kmay bigacha yetib kelgan xalq ijodiyoti namunalari, dostonlar, termalar, afsona va asotirlarda ajdodlarimizning ezgu orzu-umidlari, insonparvarlik g'oyalari, hayotiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Yangi O'zbekistonni barpo

etishda milliy qadriyatlarimizga murojaat etilayotgani zamirida bebaho madaniy merosimizni asrab-avaylash, uni targ'ib etish, yoshlarda ehtirom tuyg'ularini uyg'otish maqsadi mujassam. Bu jihatlar maqom, baxshichilik, hunarmandchilik festivalari timsolida hayotimizdan tobora chuqur joy olmoqda.

Davomi 2-sahifada.





YANGRAYVER SIN BAXSHILARNING DOSTONLARI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Baxshichilik – she'riyat, musiqa, ijrochilik mahoratini o'zida mujassam etgan bebaho san'at. Qadimiy dostonlarimiz juda uzoq o'tmishga borib taqalishi haqida tarixiy manbalar, shu bilan birga Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy kabi allomalar asarlarida ko'plab dalillar bor. Baxshichilik san'ati xalq og'zaki ijodining turli shakllari – so'z o'yinlari va qochirilmalar, xalq maqol va matallaridan unumli foydalanishga asoslanadi. Tinglovchini o'ziga rom etuvchi ohang dostonni jozibali va qiziqarli qiladi. Bu esa baxshilardan katta iste'dod, kuchli mahorat va xotirani, muntazam mashq qilishni talab etadi.

Baxshilarimiz merosi juda boy va rang-barang. Masalan, Po'lkani shoir yetmishdan ortiq dostonni yod bilgan. Har bir doston o'n-o'n besh, hatto yigirma ming misragacha she'ri ham o'z ichiga olishini hisobga olsak, xalq baxshilarining hayratomuz yodlash

va esda saqlash qobiliyati, ijro qudrati o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

Bola baxshi Abdullayev, Shoberdi Boltayev, Abdunazar Poyonov, Boborayim Mamatmurodov, Qora baxshi, Abduqahhor va Abdumurod Rahimov, Shomurod Tog'ayev, Ziyodulla Islomov, Norbek Abdullayev, Qalander Normetov, Qodir Rahimov kabi baxshilarimiz baxshichilik san'ati rivojiga munosib hissa qo'shdi. Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Xorazm va Qoraqalpog'istonda baxshichilik san'ati rivojlangan. Hozirgi kunda Bularung'ur, Shahrisabz, Qamay, Chiroqchi, Dehqonobod, Sherobod, Boysun, Xorazm va Qoraqalpog' dostonchilik maktablari betakror ijrosi bilan ajralib turadi. "Alpomish", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Ravshan", "Kuntug'mish", "Rustamxon", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Avazxon" kabi o'nlab dostonlar xalq ruhini, uning teran ma'naviyatini o'zida aks ettiradi.

Nukusda o'tayotgan II Xalqaro baxshichilik san'ati

festivalida 22 davlatdan 100 dan ortiq baxshi, oqin va jirovlar, badiiy jamoalar qatnashmoqda. Shuningdek, mamlakatimizning barcha hududidan kelgan ijrochilar o'z san'atini namoyish etyapti.

Tadbir doirasida "Baxshichilik san'atining jahon madaniyati sivilizatsiyasida tutgan o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tadi. Festival ishtirokchilari uchun Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat akademik musiqali teatrida "Xalq uchun" milliy operasi namoyishi va Mo'ynoq tumandagi madaniy meros obyektlariga ekskursiyalar tashkil etiladi.

...Nukusdagi sahnada turli davlatlar bayroqlari hilpiraydi. Baxshi-yu oqinlar ijrosida xalqona ohanglar yangraydi. San'at ustalari va ijrochi yoshlar konsertga yanada zavq bag'ishlaydi.

Nazokat USMONOVA,
O'za muxbiri
Maqsad HABIBULLAYEV
olgan surattar.



24 O'ZBEKISTON PREZIDENTI OKTABR 2021-YIL SAYLOVI FUQAROLAR FAOLLIGINING ENG MUHIM GENERATORI NIMA?

Jamiyatning yetarli axborot bilan ta'minlanganligi va faolligi o'sha davlatdagi faoliyat odamlarning hayot tarzini yaxshilash, xalq turmushi farovon bo'lishiga yo'naltirilganligining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki aynan farovon hayotga erishishda aniq maqsadlar bo'lishi, unga erishish uchun esa qanday yo'l tutishni aniqlashga tayanch bo'ladigan tahliliy-qiyosiy axborotlarga ega bo'lishimiz muhim. Bu axborotlardan aniq maqsadlar yo'lida foydalanish aynan taraqqiyotga xizmat qiladi.

Bugun biz demokratik jamiyat quryapmiz deb ko'p joyda o'qiy-miz, eshitamiz, uning nazariy, amaliy jihatlarini darslarda tushuntiramiz. Unga erishishning eng muhim jihati nimada? Odamlarimiz faol bo'lishi uchun ularni kuchga keltiruvchi muhim generator nima? Albatta, jamiyatdagi ochiqlik va oshkoralik muhiti.

Bu – fuqarolarning faolligini oshiruvchi eng muhim imkoniyat. Fuqarolar faolligi esa jamiyat siyosiy, ma'naviy, madaniy qadriyatlarining in'ikosi, oyna-sidir.

Bilamizki, demokratik jamiyatning qator belgilari mavjud: mamlakat suvereniteti – adolatli va muntazam o'tkaziladigan saylovlar; qonun ustuvorligi, barcha fuqarolarning qonun oldida huquqiy tengligi; so'z va fikr erkinligi; partiyalarga erkin kirish imkoniyati kabilar, aynan faollikni talab qiladigan jihatlardir.

Ayniqsa, bugungi kunda xalqimizning kelajakdagi farovon hayoti uchun muhim bo'lgan saylov jarayonlari pallasida bu generator barchamizga jolib imij uchun xizmat qilishi kerak, deb o'ylayman.

Hozirda oshkoralik va ochiqlik jamiyatimizda qanday holatlarda aniq namoyon bo'lmoqda?

Xalq bilan muloqot tamoyili mamlakatimizda ochiqlik va oshkoralik muhitini yuqori darajaga ko'tardi. Hukumat a'zolari, hokimiyatlar, davlat tashkilotlari – hamma-hammasida xalq bilan muloqot turli shakllarda faollashdi.

Ochiqlik tamoyili asosida odamlarning muloqotlari, o'z tashkilotiga tegishli yoki shaxsiy muammolarini yechish uchun ham erkin fikr almashishlarga imkoniyatlar kengaydi. Bu ishda ommaviy axborot vositalari, shuningdek, blogerlarining o'rnini alohida ta'kidlash zarur. Aynan ochiqlik bo'lgani uchun ham ularning tahliliy, tanqidiy fikrlari, chiqishlari orqali odamlarning faolligi ortmoqda.

Davlat organlari o'z faoliyati doirasida har qanday tanqidiy masalalar yuzasidan munosabat bildirmoqda, keng jamoatchilikka axborot bermoqda. Ayniqsa, buni faqatgina OAVda chiqish emas, ijro hokimiyatining Parlament oldida ham muntazam hisobot berayotganligida ko'ramiz.

Odamlarning konstitutsiyaviy huquqlaridan eng muhimi sifatida saylov jarayonlarida ishtirok etishi doimiy e'tiborida. Bu masala, ayniqsa, bugungi kunda nihoyatda dolzarb. Chunki Prezidentlik saylovi o'tkazilishiga sanoqli kunlar qoldi.

Saylov jarayonini xolis yoritish va aholini zarur axborot bilan ta'minlash masalalari saylov qonunchiligida to'la ko'rsatilgan. Markaziy saylov komissiyasi bilan 120 nafardan ziyod jurnalistlar va blogerlar o'rtasida "galstuksiz uchrashuv" formatida press-kofe uyushtirilgan ham saylov jarayonlari yoritilishiga yangicha yondashuvdir. Shu kunga qadar 50 ta mahalliy OAV, jumladan, teleradiokompaniyalar, bosma va internet nashrlarning 930 nafar vakili ro'yxatga olingan hamda 29 ta xorijiy OAVning 58 nafar jurnalisti akkreditatsiyadan o'tkazilgan.

Saylov jarayonlari haqida saylovchilarni keng xabardor qilish maqsadida roliklar, maqolalar, telereportajlar tayyorlanib, namoyish etilmoqda. Markaziy saylov komissiyasining "Saylov 2021" veb-portali hamda "Saylov 2021" mobil ilovalari ishlab turibdi.

Markaziy saylov komissiyasi xabariga ko'ra, saylov jarayonlari doirasida yurtimizdagi barcha ommaviy axborot vositalari orqali mingga yaqin xabar, reportaj, tahliliy maqola, intervyu, blits-test hamda yana boshqa formatdagi ko'plab jurnalistik materiallar e'lon qilingan.

Demokratiyaning aniq belgisi sifatida shuni ko'rsatish joizki, bugungi kunda jamoatchilikning siyosiy jarayonlarga nisbatan qiziqishi yuqori. Saylov jarayonlari haqida nafaqat ommaviy axborot vositalari, matbuot nashrlari orqali, balki ijtimoiy tarmoqlar orqali ham ko'plab yangiliklardan xabardor bo'lmoqdamiz. Fuqarolarimizning shaxsiy bloklarida ham saylovga oid xabarlar va yangiliklar yoritilishi ularning saylovning o'zi va jamiyat taqdiriga daxldor masala sifatida anglashining ifodasidir.

Bugun jamoatchilikka tegishli bo'lgan har qanday axborotni sir tutishning iloji yo'q. Bunga jamiyatimizdagi huquqiy mexanizmlar ham yo'l qo'ymaydi.

Fuqarolar faolligini oshirishdagi muhim generator – oshkoralik va ochiqlik bor joyda, albatta, fikrlar xilma-xilligi mavjud bo'ladi. Muhimi – asosli fikrlash, obyektiv, xolis baholash, qonunlarimizni hurmat qilish va ularga rioya etish, befarq bo'lmislik va saylovda faol qatnashish, kelajak uchun albatta o'z ovoqimizni berishimiz zarur!

Gulchehra RIXSIYEVA,
Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti
rektori.
O'ZA



SAYLOV — IMKONIYAT VA MAS'ULIYAT

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi ana shunday yoshlarning siyosiy hamda huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida yangi tashabbusga qo'l urdi: "Yoshlarning siyosiy bilimlari va huquqiy madaniyatini yuksaltirish" aksiyasiga start berdi. Ilk manzil Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'ldi.

Ellikqal'a san'at saroyida aksiya doirasida "O'z kelajagimni o'zim belgilayman, Siz-chi?" shiori ostida insholar tanlovi, "Munozara" intellektual bellashuvi, yutuqli viktorina, yoshlarning huquqiy savodxonligini aniqlashga qaratilgan "Siz bilasizmi?" teleo'yini o'tkazildi.

#Kelajaging_uchun_ovoiz_ber, #Saylov_Imkoniyat_va_masuliyat, #Men_saylash_huquqiga_egaman xeshteglarida ostida ijtimoiy targ'ibot aksiyasi yuzasidan fotoburchaklar tashkil etilishi loyihaning ko'rarinki ruhda o'tishini ta'minladi.

Targ'ibot amaliyotiga jalb etilgan yoshlar uchun ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilot va harbiy qismlarda namunaviy targ'ibot ishlari amalga oshirildi.

Tashkil etilgan namunaviy aksiyada Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqining hududiy Kengashlari raislari hamda viloyat hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari ishtirok etdi.

Shuningdek, "Saylov — 2021: Kelajak xalq tanloviga bog'liq!" mavzusida maqolalar tanlovi hamda "Men ham saylovda faol ishtirok etaman" tanlovi, "Yangi O'zbekiston saylovlari yoshlar nigohida" ilmiy-amaliy xalqaro konferensiyaning taqdimoti o'tkazildi. Mazkur aksiyada 1 ming 163 nafar yosh faol ishtirok etdi.

MANZILLAR OSHA

Qoraqalpog'istonda start berilgan "Yoshlarning siyosiy bilimlari va huquqiy madaniyatini yuksaltirish" aksiyasi Xorazm yoshlarini ham bir maqsad atrofida birlashtirdi. Viloyat markazi — Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi istirohat bog'ida "Yosh saylovchi" respublika ishchi guruhi a'zolari tomonidan aksiya doirasidagi loyihalar taqdimoti, "O'z kelajagimni o'zim belgilayman, Siz-chi?" shiori ostida

insholar tanlovi, "Munozara" intellektual bellashuvi, yutuqli viktorina, yoshlarning huquqiy savodxonligini aniqlashga qaratilgan "Siz bilasizmi?" teleo'yini bo'lib o'tdi.

Hudud yoshlariga aksiyadagi yosh saylovchilarga saylov jarayoni haqida muntazam ma'lumot berib boruvchi yoshsaylovchi.uz elektron platformasi haqida ham ma'lumotlar berildi.

NAVBAT BUXOROGAI


"Yoshlarning siyosiy bilimlari va huquqiy madaniyatini yuksaltirish" aksiyasi Buxoro viloyatini ham chetlab o'tmadi. Voha yoshlari har bir loyihadagi faolligi bilan ajralib turishdi.

— Siyosiy-huquqiy faol inson jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga e'tiborli, o'zida ishlohtlarga daxldorlikni sezadi. Davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik mas'uliyatini his qiladi. Eng muhimi, u mamlakat taraqqiyotiga amaliy hissa qo'shishga intiladi, — deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi Shavkat Zayniddinov. — Aksiya doirasida o'tkazilayotgan loyihalarimizdan ko'zlanayotgan maqsad ham shu! Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy sohani rivojlantirish borasida qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlarining mazmun-mohiyatini yoshlarga yetkazish, ularning ijtimoiy-siyosiy bilimlarini rivojlantirish harakatidamiz. Shuningdek, yoshlarni yurtimizdagi siyosiy jarayonlarda ham faol ishtirok etishga chorlab qolamiz!

O'zbekiston yoshlar ittifoqining telegramdagi rasmiy sahifasi ma'lumotlari asosida Komila HAMROYEVA tayyorladi.

Yosh ijodkorlar kengashi tashabbusi bilan Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida 14-iyundan "Duel" loyihasingin uchinch mavsumi boshlandi. Loyiha doirasida Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda "Nasr", "Nazm", "Tasviriy san'at", "Badiiy tarjima" yo'nalishlari bo'yicha ko'plab yoshlar ro'yxatdan o'tib, duelda o'zaro raqobat olib bordi.

ISTE'DODLAR DUELDA OLOVDEK TOVLANDI VA TOBLANDI!



27-iyul kuni "Duel" loyihasingin hududiy bosqichlari o'z nihoyasiga yetdi. Yangi tanlovlar yangi ijodkorlarni kashf etadi. "Duel" ham oldiga shunday maqsad qo'ygan. Loyiha shu kungacha ko'plab ijodkorlarni kashf etdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Loyihaning kutilgan respublika bosqichi joriy yilning 14-16-sentabr kunlari Adilbar xiyobonida bo'lib o'tdi. Tanlov uchun 500 million so'm miqdorida pul mukofoti ajratildi. Finalda 67 nafar iste'dodli yosh ishtirok etdi.

Tanlovning "Badiiy tarjima" yo'nalishida Alisher Sabriy va Shoxruh Usmonov duelga chiqdi. Yakunda Alisher Sabriy 1-o'rinni, Shoxruh Usmonov 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

"Nasr" yo'nalishida Shavkat Do'stmuhammad 1-, Firdavs Shokirov 2-o'ringa loyiq deb topildi.

"Nazm" yo'nalishida g'oliblik Shahriyor Shavkatga nasib etdi. 2-o'rin Suhrob Ziyoga berildi.

"Tasviriy san'at" yo'nalishida O'ktam Isergapov va Ulug'bek Yusupov o'zaro duelga chiqdi, 1-o'rin Ulug'bek Yusupovga, 2-o'rin O'ktam Isergapovga nasib etdi.

Barcha 1-o'rin sohiblariga 25 million so'mdan, 2-o'rin sohiblariga 15 million so'mdan pul mukofotlari berildi. Finalga yetib kelgan qolgan barcha ishtirokchilar 5 million so'm miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlandi.

"Yosh ijodkorlar" kengashi raisi Mehrnoz Abbosova shunday deydi:

— Tanlovlar borasida biz oldimizga shunday maqsad qo'ydik-ki, ya'ni bu tanlov yangi va noodatiy bo'lsin, undan xalq bahramand bo'lsin, ijodkor yoshlar qiziqib ishtirok etsin! Har bir sohada, yangicha formatga o'tish kerak, duel ham shulardan biri. "Duel" loyihasi ko'plab ijodkorlarni kashf etdi, kerak bo'lsa, bizning kengashimizni ham targ'ib qildi, biz esa bundan xursand bo'ldik.

Abdulloh ABDUMONOV,
Toshkent shahar Shayxontohur tumani
102-IDUM o'quvchisi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI YANGILIKLARI

“YOSH GVARDIYACHI”LAR

Milliy gvardiyaning Farg'ona viloyati bo'yicha boshqarmasi tomonidan viloyat xalq ta'limi boshqarmasi va Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi hamkorligida “Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik” shiori ostida “Yosh gvardiyachi” harbiy-sport musobaqasining birinchi bosqichi o'tkazildi.

Andijon shahridagi “Bolalar shaharchasi”ning “Arslonlar” jamoasi 6 ta shart bo'yicha ishtirok etdi. Jumladan, bilimdonlar bellashuvi, o'q-dorilarni belgilangan joyga yetkazish va o'qdonga joylash, Kalashnikov avtomatini noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, estafeta 4x100, turnikda tortilish kabi shartlar ishtirokchilar bilimi, matonati va irodasini sinovdan o'tkazdi.

Qizg'in va hayajonli lahzalarga boy bo'lgan musobaqada 3-o'rinni Andijon va Namangan viloyatlari vakillari, 2-o'rinni Qo'qon shahri jamoasi egallagan bo'lsa, 1-o'rin Marg'ilon shahridagi 1-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga nasib etdi hamda ular tanlovning respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Ishtirokchi jamoalar tashkilotchilar tomonidan diplom, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



Musobaqada Marg'ilon shahridagi 1-Mehribonlik uyi-ning “Yosh gvardiyachilar” jamoasi; Qo'qon shahridagi

12-Mehribonlik uyining “Shurayraklar” jamoasi; Namangan shahridagi 26-Mehribonlik uyining “Temurbeklar” jamoasi;

HAMKORLIK
MEMORANDUMI
IMZOLANDI

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va Prezident ta'lim muassasalari agentligi o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Mazkur memorandum O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PQ-5215-son “Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori hamda shu yil 10-sentabr kuni davlatimiz rahbari raisligida IT sohasida kadrlar tayyorlash hamda Prezident, ixtisoslashgan va ijod maktablarida ta'lim sifatini oshirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga sifatli ta'lim-tarbiya berish jarayonini takomillashtirish maqsadida amalga oshirildi.

Tadbirida Milliy gvardiya qo'mondoni R.Djurayev, Prezident ta'lim muassasalari agentligi direktori X.Umarova hamda ikki tomondan mutasaddi rahbarlar ishtirok etdi. Uchrashuvda:

- Mehribonlik uylari, Bolalar shaharchalari va oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy himoya qilish;
- “Raqamli avlod” loyihasi bilan Mehribonlik uylarini bosqichma-bosqich qamrab olish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish;
- Mehribonlik uylarida “Raqamli avlod” sinf xonalarini tashkil etish va iqtidorli bolalar guruhrarini shakllantirish;
- Prezident ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi Prezident maktablari qatori ushbu tizimdagi ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari o'quvchilarining ham ot sportiga qiziqishini oshirish va Milliy gvardiya tizimida yo'lga qo'yilgan sport to'garaklariga jalb qilish;
- Mehribonlik uyi, oilaviy shaharchalar va oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablariga o'qishga kirish va ularning tayyorgarligi bo'yicha ushbu muassasalar mutaxassis o'qituvchilarini jalb qilish kabi vazifalar yuzasidan kelishib olindi.

Tadbirida Milliy gvardiya qo'mondoni “Raqamli avlod IT oromgohi”da ishtirok etgan va bilim-ko'nikmalarini oshirgan 22- va 23-Mehribonlik uylari hamda “SOS-O'zbekiston bolalar shaharchasi”ning iqtidorli o'g'il-qizlari bilan uchrashdi. Ochiq muloqotda ularning kelajakdagi rejalarini bildirgan va fikrlar inobatga olinib, o'qishga kirish hamda ish bilan ta'minlanishlari yuzasidan tegishli mutasaddi rahbarlarga topshiriqlar berildi.

www.milliygvardiya.uz saytidan olindi.

OILAVIY BOLALAR UYLARI

bunday uylar yurtimizning barcha hududlarida ko'paymoqda

Andijon shahrida istiqomat qiluvchi Farhod Umarovlar oilasida katta tantana bo'lib o'tdi. Umarovlar Andijon shahridagi “Bolalar shaharchasi”dan 7 nafar o'g'il-qizni o'z qaramog'iga olib, oilaviy bolalar uyi faoliyatini yo'lga qo'ydi.

Ko'tarinki kayfiyatda o'tgan tadbirida Milliy gvardiyaning Andijon viloyati bo'yicha boshqarmasi, Qo'riqlash boshqarmasi, shahar hokimligi hamda Yoshlar ittifoqi hududiy kengashi vakillari hamda mahalla faollari qatnashdi.

Shuni alohida e'tirof etish joizki, ayni kunlarda yurtdoshlarimiz ezgu maqsadlar bilan mehr uylari yaratib, dilbandlarni bag'riga olayotgani quvonarli holdir va bu xayriy ishlar respublika miqyosida



keng quloqch yoymoqda.

Kuni kecha Buxoro viloyatida ham birinchilardan bo'lib Oilaviy bolalar uyi ochishdek ezgu ishga qo'l urgan Behbutovlar oilasi Mehribonlik uyidan 6 nafar o'g'il-qizga g'amxo'rlik qilish

uchun oila a'zosi sifatida qabul qilib oldi.

Eslatib o'tamiz, bundan sal avval Buxoro viloyatidagi 32-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi bo'lgan 2 nafar qiz o'z oilasiga qaytarilgan edi.

Samarqand viloyatining Oqdaryo tumani va Samarqand shahrida oilaviy bolalar uylari tashkil etildi. Viloyatdagi 1-Mehribonlik uyining 10 nafar tarbiyalanuvchisi endi mazkur oilalar bag'rida yashaydi.

Joriy yilning 28-iyul kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida nogironligi bo'lgan, ota-ona qaramog'idan mahrum va yetim bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kengaytirilishi va bu borada yangicha tizim joriy etilishi ta'kidlangan edi. Shundan so'ng, 9-avgust kuni Prezidentimizning ikkita qarori qabul qilindi va unga ko'ra yurtimizdagi Mehribonlik uylari, Bolalar shaharchalarida yashayotgan bolalar ta'lim-tarbiyasiga O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi mas'ul etib

belgilandi. Shuningdek, Mehribonlik uylaridagi bolalarni oilaga yaqin muhitda tarbiyalash, oilaviy bolalar uylari tashkil etgan va yetim bolalarni o'z qaramog'iga olgan oilalarga bir qator imtiyozlar berilishi belgilandi.

Samarqandda Milliy gvardiya ko'magida tashkil etilgan dastlabki oilaviy bolalar uylarining ochilishida davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Milliy gvardiya Samarqand viloyati bo'yicha boshqarmasi boshlig'i,

polkovnik L.Yaxshilikov ezgu ishga qo'l urgan xonadon egalari minnatdorlik bildirdi. Endi ushbu xonadonlarda yashovchi bolalarning yaxshi ta'lim-tarbiya olib, jamiyatning faol a'zolari bo'lishiga tilak bildirdi.

Oqdaryo tumani Nayman mahallasida yashovchi Olim Rahimov turmush o'rtog'i Marhabo opa bilan o'z “Oilaviy bolalar uyi”ni ochib, 4 nafar qiz va 1 nafar o'g'il bolani oila bag'riga qabul qildi.

– Shu paytgacha 1-Mehribonlik uyi-da ishlaganman va bu bolalar o'z farzandimdek bo'lib qolgan, – deydi Marhabo Rahimova. – Prezidentimizning qarorlari chiqib, oilaviy mehribonlik

uyllari tashkil etishga ruxsat berilganidan so'ng, shu ishga qo'l urib, besh nafar bolani o'z oilamiz bag'riga oldik.


Samarqand shahar Qorasuv massivida yashovchi Usmonovlar xonadoni esa 5 nafar qizni o'z oilasiga qo'shib oldi. E'tiborlisi, bu oila bekasi Iroda Usmonova ham shu paytgacha 1-Mehribonlik uyida faoliyat ko'rsatgan va ushbu maskan bolalariga mehri tushib, endi ularni o'z xonadonida o'stirishga qaror qildi.

Oilaviy bolalar uylari egalari Milliy gvardiya va hokimlikning esdalik sovg'alari topshirildi.

G'olib HASANOV,
O'zA muxbiri

Когда находишься в своей стихии

– Правда, девочка? Вы не ошиблись? – мама двух сыновей в который раз просила врачей уточнить пол ребенка. Ее столь желанную доченьку, с появления на свет поразившую медиков спокойствием, Узбекистан через двадцать лет узнает как Сабину Ташкенбаеву, гимнастку, впервые завоевавшую для страны лицензию на Олимпиаду в своем виде спорта.



А пока счастливая женщина одевала свое чудо в самую красивую одежду для грудничков. Словно предопределила с рождения частую смену нарядов. Представительницы художественной гимнастики на каждое выступление выходят в разных купальниках. У Сабины есть прекрасная традиция: один из костюмов непременно шит мамини-

призер летних Азиатских игр и Игр исламской солидарности.

Традиционный вопрос: «Не хотелось ли когда-нибудь увильнуть от тренировок?» – студентка 3-го курса Узбекского государственного университета физической культуры и спорта встречает эмоциональным «не-е-е-ет!» и поясняет:

– Как лишиться себя того, что любишь, что приносит удовольствие?! Даже в голову не приходило прогулять. Мне и растяжка, о которой многие спортсменки говорят с гримасой пережитой боли, всегда нравилась. Когда находишься в своей стихии, нравится все. Не обижаешься, если ругает тренер (Лилия Власова работает со мной десять

до ответственных соревнований – восстановиться спортсменка не успела. Лицензию завоевать не удалось. Ташкенбаева решила наверстать упущенное на лицензионных Кубках мира: в Болгарии, Италии, Казахстане, Узбекистане. Набрала нужное количество баллов.

– Мы с тренером Лилией Власовой упорно шли к цели, – вспоминает спортсменка. – Настроение «обрушилось», несколько дней находилась в подавленном состоянии. Было тяжело смотреть выступления гимнасток. Старалась абстрагироваться. Поэтому включалась в процесс урывками.

А потом пришла радостная весть о награждении медалью «Келажак бунёдкори». Первую дочь поздравила Оль-



га Наримановна, затем появилось сообщение в соцсетях от имени Федерации гимнастики. Высокую оценку своего труда Сабина Ташкенбаева приняла с огромной благодарностью:

– Ощущать себя строителем будущего почетно и ответственно. Это стимул работать дальше усерднее, с большей отдачей. Не могла получить медаль с группой спортсменов из-за болезни. Вручение состоялось позже в Кабинете Министров. Искренне благодарна государству за внимание к молодежи, условия, созданные для развития ее дарований.

В жизни гимнастки произошло еще одно знаменательное событие: в начале сентября она создала семью с тазквондистом Ниязом Пулатовым. На вопрос, каково ужиться двум спортсменам

под одной крышей, отвечает со смехом:

– Очень хорошо! Спортсмен спортсмена всегда поймет. Нам есть о чем поговорить кроме спорта. А то, что придется часто расставаться из-за соревнований, только укрепит чувства.

В данное время у Сабины после перенесенного заболевания облегченный режим тренировок. Нужно восстановиться. Появилось время для прогулок по набережной Анхора, для красивого хобби. Хороший художественный вкус подсказывает идеи оригинальных композиций, открыток. Последняя работа – букет красных пионов из крафтовой бумаги. Девушка подарила его генеральному секретарю Федерации гимнастики Гизелле Филипповой. Кстати, мебель для молодоженов заказывали по эскизам спортсменки. И еще, несмотря на занятость, она прекрасная хозяйка. Путь к сердцу избранника всегда будет «вымощен» ее кулинарными талантами.

Однако главным делом всегда будет художественная гимнастика, которая влюбила в себя шестилетнюю девочку и уже вряд ли отпустит. До следующей Олимпиады – рукой подать. Будем надеяться, что увидим на ней Сабину Ташкенбаеву во всей красе.



ми руками. Добрую энергию Ольги Наримановны, тепло материнского сердца дочь чувствует, как бы далеко от дома ни находилась.

Когда в группу здоровья к Ирине Джумаевой записали шестилетнюю девочку, никто не задумывался, чем станет для нее регулярное посещение занятий. А тренер сразу обратила внимание на хорошую растяжку. Даже предположила, что малышка уже занималась гимнастикой. Так природное дарование и неутомимое упорство открыли девочке дорогу в большой спорт. На первых же соревнованиях, которые проводились Профсоюзом работников народного образования, она заняла призовое место. Потом победы на состязаниях юных граций стали привычными. К ним добавились достижения международного уровня. Имя «обросло» титулами: трехкратная чемпионка Азии,

лет), радуешься, если гладит (высшая похвала!) по голове. Даже все предметы – мяч, булавы, обруч, лента – нравятся одинаково.

...Впервые мастер спорта международного класса, художественная гимнастка из Узбекистана станет участницей самых престижных Игр. Поклонники динамики, энергии и грации с нетерпением ждали выступления любимой спортсменки. И вдруг... Сабина Ташкенбаева не сможет защищать честь страны на Олимпиаде в Токио: тест на COVID-19 показал положительный результат.

Обидно. Идти к цели в напряженной борьбе и оказываться в зависимости от напугавшего весь земной шар вируса. «Пропуск» на Олимпиаду дался Сабине нелегко. В 2019 году на лицензионном чемпионате мира в Баку выступала после травмы локтя. Перелом случился за месяц





НЕ ЖАЛЕТЬ, А ПОДДЕРЖИВАТЬ!

Состояние общества, как лакмусовая бумажка, проверяет отношение к тем людям, которых зачастую называют «особенными». А они как все, только с чуть меньшим набором здоровья, но отнюдь не меньшим желанием жить и чувствовать себя полноценными гражданами общества. И «ограниченные возможности» на деле оказываются такой силой духа, что и не снилась пессимистам здоровякам, из пустяков раздувающим проблемы.

Сегодня у нас в гостях заслуженная артистка Республики Узбекистан, а речь пойдет не о театре и кино. Наша тема – искусство общения, и Рано ШОДИЕВА, также директор Республиканского центра молодежи и детей с ограниченными возможностями «Mehri qo'lag», будет рассказывать о сильных людях, умеющих преодолевать трудности и добиваться цели.

РАЗГОВОР О ВАЖНОМ

– Для многих узбекистанцев вы прежде всего талантливая актриса, однако ваш дар подкрепляется внутренним светом – умением чувствовать боль другого человека и дарить ему надежду. Чем для вас стала работа в центре «Mehri qo'lag»?

– Сфера для меня не новая. Можно сказать, продолжаю эстафету поколений. Мама много лет работала в Обществе глухих, и мы, дети, видели, что значит для нее откликаться на проблемы людей с инвалидностью, охотно помогали ей. Когда я стала популярной, мама попросила меня возглавить фонд «Говорящие руками». Было осуществлено много проектов, но через десять лет в связи с рождением третьего ребенка фонд пришлось оставить. Потом получила предложение возглавить Центр молодежи и детей с ограниченными возможностями.

искусстве, поэзии, художественной миниатюре, разных народных ремеслах. Подумала: разделение на здоровых и с ограниченными возможностями, если речь идет об одаренности, неправильно. Даже не нужно задаваться вопросом: «А у них получится?» У них все получится! И гораздо лучше, нежели мы предполагаем.

– Что, на ваш взгляд, можно назвать самым большим достижением центра?

– То, что мы изучили проблему изнутри. Зашли в дома, посетили семьи, чтобы узнать их потребности. Выяснили, что именно им

кардиохирургические операции людям с сердечными заболеваниями старше 15 лет.

«Imo-ishora til» направлен на повышение грамотности людей с нарушениями слуха и речи в языке жестов и создании для них новых возможностей в обществе. В настоящее время языку жестов обучены 172 учителя специальных школ-интернатов.

«Braul tiyografiyasi» должен удовлетворить потребности слепых и слабовидящих молодых людей и детей в книгах со шрифтом Брайля. Сегодня опубликовано около 600 учебников по грамматике Брайля и английского языка, а также азбука. Изданные книги будут розданы в специальные школы-интернаты.

Есть несколько бесплатных магазинов, где нуждающиеся могут выбрать для себя как носенные, но в хорошем состоянии, так и новые вещи.

Открыто бесплатное кафе в Республиканском специализированном научно-практическом медицинском центре гематологии. Находится на балансе клиники. «Mehri qo'lag» обеспечивает кафе продуктами. Здесь организовано трехразовое питание для родителей детей, получающих лечение в данном учреждении.

Два года ведутся занятия в «Почемучке» для наших дошколят. Подготавливаем к учебе детей с ограниченными возможностями. К услугам малышей логопед, психолог. Это все бесплатно. До пандемии был большой поток ребят. Из них 99 процентов пошли в обычные школы в рамках инклюзивного образования.

Открыли кружок кройки и шитья для девушек с нарушениями слуха. Тех, кто хорошо себя проявит, будем трудоустройство.



Узбекской товарной биржей, факультетом «Адаптивная физическая культура и оздоровительный спорт» Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, Республиканским центром адаптации детей, Национальным паралимпийским комитетом, страховой компанией Gross Insurance и другими партнерами.

– А волонтерская помощь?

– Это неотъемлемая часть нашего центра. Осуществить проект без добровольцев практически невозможно. Они поднимают и развивают благотворительность. Волонтерское движение подразделяется на разные направления: медицинские, арт-волонтеры, клоуны... Кого бы ни позвали, приезжают на наши мероприятия безотказно. Каждый из них очень важен для нашего центра и для общества вообще.



И не следует снова «изобретать колесо», когда оно уже создано. Бери – и пользуйся, внося собственные коррективы.

– Как научить общество правильно относиться к людям с инвалидностью?

– Во-первых, демонстративно не высказывать жалость. Можно поддержать, но ни в коем случае не жалеть. Что произошло, то произошло. Оно есть, и над этим нужно работать. Вижу, наше общество уже меняется. Благодаря тому, что об этом стали говорить. А говорить надо.

Правильно преподнести проблему должно телевидение. Рассказывать не жалостливо, подчеркивая особенности людей с инвалидностью, их непохожесть на остальных, а об их достижениях. Все, что им нужно от окружающих, – чтобы их принимали как членов общества с такими же правами. Для них важны нормальное человеческое отношение и доступность среды. Они не будут ни о чем просить, имея такую доступность. Добьются всего сами, ибо очень сильные люди. Докладывают о том, что способны.

– Вы как-то сказали, что, беря на вооружение международный опыт, можете не экспериментировать и избежать чужих ошибок.

– К своим достижениям развитые страны шли на протяжении долгих лет. А нам не нужно идти к тому же методом проб и ошибок, тратя драгоценное время. Такие проекты, как «Доступная среда», «Доступное общество», «Инклюзивное общество», расписаны, апробированы, доказали свою эффективность. Значит, программы, успешно реализованные в других странах, нужно просто адаптировать под нашу действительность, наши законы, наш менталитет.

ные языки, пишут программы для людей с особыми нуждами и педагогов спецучреждений. Некоторые даже открыли собственные фирмы. Это же здорово! Горжусь ими! А ведь для многих достаточно просто поговорить и услышать нужный посыл – и процесс самореализации начинается. Правильно преподнесенная информация, вдохновляющий пример стимулируют поступательное движение.

Хотела бы дать один совет. Неважно, будет ли это человек с инвалидностью или нет, если вам кто-то что-то хочет сказать, выслушайте (многие отмахиваются от чужих проблем) его. Иногда это запускает такие механизмы, которые круто меняют жизнь.

– Как центр выступает за создание доступной среды для людей с особыми нуждами?

– Как члены специальной комиссии представляем интересы наших ребят, выражаем свое мнение в публичных выступлениях. Обязательно говорю о создании доступной среды в своих интервью. В столице отмечают положительные изменения. На очереди – регионы.

– Многие случаи инвалидности могло бы не быть, будь разумнее взрослые, договаривающиеся о кровнородственных браках. Как по линии центра ведется профилактическая работа в этом направлении?

– Да, многих семейных драм можно было бы избежать. Работа в данной сфере, нельзя не анализировать причины: почему так произошло, кто виноват, как предотвратить проблему, снизить число рождающихся больных детей? Проблема Узбекистана – кровнородственные браки. Хочется кричать: «Остановитесь! Не делайте этого!» Ведь многие редкие генетические патологии возникают именно в таких союзах. Всегда подчеркиваю это на встречах, тренингах, мастер-классах, заостряю внимание в интервью. Люди сами должны понять, какому риску подвергают своих детей. Даже зная о возможных последствиях, думают, что это случается с другими, а их беда минует. Вероятность рождения ребенка с инвалидностью в кровнородственном браке – 30 процентов. Риск нужно устранять. Даже если такой брак состоялся, необходимо готовиться к рождению ребенка под наблюдением специалистов. Предварительно провести обследование обоих супругов, а не вести на прием к врачу невестку или дочь.

Вообще, планирование детей – правильная позиция для любого семейного союза. Ребенок не может быть случайным, он должен быть ожидаемым и желанным. И устаревшее мнение «Наши бабушки как-то обходились без врачей» никак не соответствует современной ситуации, когда медицина обладает фантастическими возможностями.

– Общение с Ником Вуйичичем как-то повлияло на ваших воспитанников?

– Он отличный мотиватор для обычных здоровых лентяев, которые не хотят ничего менять в жизни. Имеют возможности, но ими не пользуются. Что касается наших ребят, они сами крутые и впечатляют не меньше Ника. Не только могут выступать с лекциями, говорить, что человек с особенными нуждами – это прежде всего человек и способен много достичь. Они сами нашли себя в жизни.



Это и мотиваторы, и люди, крепко стоящие на ногах: имеющие профессию, ремесло, золотые руки.

– Как в центре учат «ловить рыбу», воспитывая инициаторов активных перемен в социальной сфере? Расскажите подробнее о подходе «Все в твоих руках».

– Известное высказывание о том, что можно дать рыбу, а можно научить ее ловить, и второе намного важнее первого, проверено жизнью. Непродуманная благотворительность ведет к пассивному потребительскому отношению. Человек, привыкший получать нужное без малейших усилий, быстро к этому привыкает. У него не возникает потребности овладеть какими-то навыками, расти, совершенствоваться. Самое главное – мотивация. А кто может быть лучшим примером для подражания, как не добившийся значительных успехов молодые люди с инвалидностью? Реальные истории и становятся движущей силой, заставляющей поворотиться в себя.



Хороший эффект дают тренировки в школах, махаллах. К примеру, один из тренингов «Знаешь ли ты свои права?». Моя команда ездит по регионам и рассказывает о возможностях, которые в Узбекистане предоставляются людям с инвалидностью, о законах в данной сфере, учит, как элементарно оформить пенсию. Немаловажно, что ведут тренинги ребята с осо-

Одна сотрудница уже получила сертификат.

Вырастить своих педагогов, которые смогут обучать по принципу «равный – равному», особенно ценно. Здесь и выстраданный опыт, и понимания больше.

– Наверное, вы не раз просто беседовали с ребятами. Какими мечтами, проблемами, идеями они делятся?

– Знаете, у таких ребят главная мечта – выздороветь. Не находиться в плену недуга. Вторая – получить образование, поэтому они так стремятся к знаниям и показывают хорошие результаты.

– Хотя бы иногда в общении с чрезвычайно ранним молодежью вам приходится быть (естественно, с благими намерениями) актрисой?

– Я с ними стараюсь быть искренней – и все. Стремлюсь их понять, приспущиваюсь к ним. Бывают разные ситуации, в том числе сложные. Иногда достаточно человека просто послушать, и решение проблемы находится само собой. Все мы, по определению Шекспира, актеры, а «вся наша жизнь – театр». И роль свою нужно «отыграть» так, чтобы никто не сказал: «Не верю!» То есть естественно. В данной сфере нужна предельная искренность.

– Где черпаете силы для со-
вращения двух таких важных дел, требующих неиссякаемой энергии?

– Придает сил семья, так как уважает и поддерживает мое дело. Придают сил результаты работы, если она выполнена на уровне. Пусть не безупречно, но очень хорошо. Это дает мотивацию, дополнительный импульс – продолжать, творить, создавать проекты, программы, образы.

– Каким видите центр в перспективе?

– Развивающимся. Реализующим многие полезные хорошие проекты. Расширяющимся.

– Желаете осуществить все задумки? Трансформировать ограниченные возможности в неограниченные!

– Спасибо! А вам правильного освещения жизни тех, у которых нам еще учиться и учиться.

Беседовала
Ольга АЛЕКСАНДРОВА
Фото Рустама НАЗАРМАНОВА

Пешком, на велосипеде или общественном транспорте – именно так призывают передвигаться по населенным пунктам организаторы Европейской недели мобильности, которая в третий раз проходит в Узбекистане

EUROPEAN MOBILITY WEEK

Любите свой город!



как же это здорово – сделать утреннюю пробежку в парке или вокруг дома, отправиться на велосипедную прогулку с друзьями, прокатиться на самокате до ближайшего кинотеатра. «Полезно для здоровья, хорошего настроения и экологии», – резюмирует Наталья.

организованная в Центральном парке Ташкента имени Мирзо Улугбека. Художники и дизайнеры передали идеи безопасности, здоровья и любви к столице с помощью креативно оформленных велосипедов.

«Тема 2021 года – «Безопасность и здоровье с устойчивой мобильностью», – отметила на открытии выставки посол Делегации ЕС в Узбекистане г-жа Шарлотт Адриан. – Это дань уважения вызовам, которые пережила Европа (и весь мир) во время пандемии COVID-19. Она также отражает возможности для изменений, возникших в результате данного кризиса. В этом году Европейская неделя мобильности отмечает жизнестойкость городов и их достижения. Такие тенденции, как повышение активной мобильности, использование мобильности с низким или нулевым уровнем выбросов, требуют дальнейшего продвижения и всесторонней поддержки».

Художественным видением предложенной темы также поделились талантливые юноши и девушки – члены сообщества G'uncha Art Space. По словам одной из основательниц творческого объединения Натальи Ахмедовой, раньше слово «улица» означало свободу во всех смыслах: дети бегали, прыгали, катались на самокатах, роликах, велосипедах. Были активны, здоровы и счастливы. Став взрослыми и серьезными, мы тренируемся на бетонных дорожках, пересели на автомобили и мотоциклы. В своих работах молодые художники постарались напомнить всем,



Простые шаги

Немаловажная тема Недели – дорожная безопасность. В этом году с помощью информационной кампании на LED-экранах Ташкента, Самарканда и Навои организаторы обращаются ко всем водителям с просьбой соблюдать ПДД и контролировать скоростной режим.

В столице планируется провести детальный анализ существующих транспортных потоков на крупных перекрестках и их архитектуры, геометрических параметров и изменений фаз светофоров. Все это позволит не только увеличить пропускную способность транспортных средств на перекрестках на 15 процентов и на треть сократить время простоя, но и снизить ущерб окружающей среде от дорожного движения до 35 процентов.

«Благодаря таким акциям, как Европейская неделя мобильности, мы видим: граждане хотят, чтобы города Узбекистана стали более удобными, – сказал председатель правления АО «Тошшахартрансхизмат» Анвар

Джураев. – Прилагаем все усилия, чтобы оправдать ожидания людей. Совершая простые шаги – выбирая пешую ходьбу, езду на велосипедах, самокатах – каждый из нас помогает сделать родной город чище, безопаснее. И главное, так проявляем любовь к тому месту, где живем мы и наши близкие».

Нынешние реалии и ситуация в мире диктуют свои требования к современным городам. В Ташкенте уже происходят значительные изменения, направленные на создание необходимой инфраструктуры для велосипедистов и пешеходов. Кроме того, осуществляются проекты по развитию общественного транспорта. Так, планируется приобретение 1 353 единиц нового пассажирского транспорта, включая 900 электробусов, постепенное обновление подвижного состава, внедрение цифрового управления процессами, а также повышение безопасности в столичном метрополитене.

Челлендж, плаггинг...

Европейская неделя мобильности – 2021 в Узбекистане отмечена рядом и других мероприятий и инициатив. В социальных сетях организован челлендж

#Ялюблюсвойгород. Для участия необходимо было опубликовать в Facebook или Instagram фото ладоней, сложенных в виде сердца. Самые активные участники получили призы – брендированные футболки, кепки и бутылки для воды.

Клуб любителей бега Tashkent Runners провел две «Акции мобильности» – плаггинг вдоль каналов Ташкента. Это относительно новый фитнес-тренд, который представляет собой пробежку с дополнительной экологической нагрузкой – сбором мусора по пути. Впервые такие акции в столице стали проводиться пару лет назад и оказались успешными. Вот и на сей раз в экологических забегах приняло участие немало желающих, которым организаторы предоставили перчатки и пакеты. Маршруты пролегли по берегам каналов Анхор и Дамаша.


Насыщенная программа Европейской недели мобильности наглядно показала: люди неравнодушны к тому, что происходит в их родном городе, стремятся сделать его чище и безопаснее. Недаром к мероприятиям European Mobility Week в этом году присоединились более 2290 городов по всему миру. О том, как глобальная кампания проходила в других странах, можно узнать на сайте <https://mobilityweek.eu>.

Алина ЯГОДИНА



Полезно для здоровья и экологии

Первым событием Недели стала выставка «Я люблю свой город: творческий подход к устойчивой городской мобильности».



КЛАССНЫЙ ЧАС

БЫТЬ НАСТОЯЩИМ ХОЗЯИНОМ ЗЕМЛИ

Акция «Всемирный день чистоты» состоялась 18 сентября. В ее проведении участвовали более 180 стран. В школах Узбекистана проведены специальные классные часы.

Наш 8 «А» тоже рассуждал о том, как человек загрязняет планету. Поразили кадры погибших животных с пластиком и стеклом в желудке. Это сколько мусора должно попасть в океан, чтобы его вместе с планктоном проглотил кит? А искусственные острова и залежи отходов, убивающие все живое!

В полной тишине рассматривали фото громадной свалки близ Ахангарана. Ведь и каждый из нас причастен к тому, что горы отходов неумолимо растут. Это то, что выбросили и мы. Нам снова напомнили ужасные цифры разложения разных материалов: месяцы в лучшем случае, а в худшем – века. Получается, человечество скоро останется без воды, чистого воздуха...


Задумались о том, как минимизировать свой экологический след. Пришли

к выводу: поможет отдельный сбор мусора, чтобы его можно было сразу отправлять на переработку, экономия воды, электроэнергии, газа. И вещам нужно давать вторую жизнь.

Почти все с некоторой долей вины посмотрели на свои баклажки с водой. Никому не хочется носить с собой стеклянную или термобутылку. Вроде как лишний груз, а он оседает грузом на плечах планеты.

Вспоминаю народную мудрость: «Из капель рождается море». Если каждый станет хотя бы чуть-чуть бережливее, в сумме это не так уж мало.

Алина ЗАКIROVA,
школа №209, г.Ташкент





“MATONAT MAKTABI” KELAJAKKA QO‘YILAYOTGAN MUSTAHKAM POYDEVORDIR

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, Vatanimiz sharafiga nufuzli musobaqalarda munosib himoya qilayotgan sportchilarga kerakli shart-sharoit yaratish borasida zarur infratuzilma yaratilgan.

Yurtimizda imkoniyati cheklangan va nogironligi bor fuqarolarning ham sport bilan shug‘ullanishi uchun alohida e’tibor qaratilayotganligi sababli joriy yil davomida parasportchilarimizning erishgan yutuqlari salmoqli bo‘ldi. Ayniqsa, Tokioda yakunlangan paralimpiya o‘yinlarida zafar quchgan parasportchilarimiz davlatimiz tomonidan avtomashinalar, kvartiralar, pul mukofotlari bilan taqdirlanganligi xalqimizni, keng jamoatchilikni behad shod etdi.

Erishilgan natijalar o‘zimizniki. Oldinda esa bir-biridan mas’uliyatli musobaqalar, hukumat miqyosida qabul qilingan davlat ahamiyatiga molik hujjatlarimiz ijrosini ta’minlashdek muhim vazifalar turibdi. O‘zbekiston milliy paralimpiya qo‘mitasi raisi Muxtorxon TOSHKO‘JAYEV bilan shular haqda suhbatlashdik.

– “Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonning qabul qilinganligiga ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. O‘tgan 3 oy mobaynida ushbu tarixiy hujjatning ijrosini ta’minlash borasida qanday ishlar amalga oshirildi?

– O‘zbekiston paralimpiya assotsiatsiyasi negizida O‘zbekiston milliy paralimpiya qo‘mitasi tashkil etilishi yurtimizda imkoniyati cheklangan va nogironligi bor insonlarning jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi va bu jabhadagi sport harakatining rivojini ta’minlashni yangi bosqichga olib chiqdi. Bir paytlari oddiy jamoat tashkiloti bo‘lgan muassasamiz tom ma’noda imkoniyati cheklangan sportchilarning haququqlari va ularning orzu istaklarini ifoda etadigan huquqiy tashkilotga aylinishiga zamin

yaratildi. Paralimpiya harakati g‘oyalarni targ‘ib qilish maqsadida Xalqaro va Osiyo paralimpiya qo‘mitasi shuningdek, bir qator tashkilotlar bilan hamkorlik ko‘lamini yanada kengaytirish va yurtimizda paralimpiya harakatini rivojlantirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.


– Albatta, har bir tizimning rivoji mutaxassislar malakasiga bog‘liq. Bu borada qanday ishlar amalga oshirilmog‘da?

– Darhaqiqat, shunday. Rosti, mazkur farmon imzolangan qadar mutaxassislarni tayyorlash masalasi tizimdagi eng og‘riqli masala bo‘lib kelayotgandi. Farmonda ko‘rsatib o‘tilganidek, paralimpiya sport turlari bilan shug‘ullanadigan murabbiylar va uslubchi-yo‘riqchilar, ko‘zi ojizlar, zaif eshituvchilar, ampu-

turlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti tashkil etish borasida zarur xat-hujjatlar tayyorlandi.

– Davlatimiz tomonidan “Tokio-2020” o‘yinlarida zafar quchgan paralimpiyachilarni taqdirlash marosimida “Matonat maktablari” tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. Mazkur dargohlarni tashkil etish ishlari qanday olib borilmoqda?

– Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama intellektual salohiyatli insonlar etib tarbiyalash, jamiyatda har bir insonda daxldorlik hissinin kuchaytirish orqali Yangi O‘zbekistonning uzoq kelajakka mo‘ljallangan mustahkam poydevori qo‘yilmoqdaki, “Matonat maktablari” tashkil etilishi mazkur jarayonning uzviy va mustahkam bo‘g‘ini bo‘lib shakllanadi. Bunday noyob va takrorlanmas g‘o‘yaning o‘rtaga tashlanishi, nafaqat bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda, balki kelajak avlodlarning ka-



tantlar bilan ishlovchi mutaxassislarni tayyorlash maqsadida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida Paralimpiya fakulteti ochildi va shu yilning o‘zida magistratura yo‘nalishida 1-bosqichga bo‘lajak mutaxassislar qabul qilindi. Bundan tashqari, qo‘mita huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan Paralimpiya sport

molotida, jamiyatning jips va birdamligiga beqiyos hissa qo‘shadi. “Matonat maktabi” ma’nosida ibrat ham, o‘rnak olish ham, hayotga teran nigoh bilan qarash ham, vatanparvarlik ham, barcha-barchasi mujassam. Hozirda vazirliklar, manfaatdor tashkilotlar, mutaxassislar bilan birgalikda “Matonat maktabi”ning nizomi, tuzilmasi, ish tartibi bo‘yicha loyihalar ishlab chiqilmoqda.

– Yildan-yilga yurtimiz paralimpiyachilarining nufuzli musobaqalardagi ishtiroki geografiasini kengayib bormoqda. Rio olimpiadasida 5 ta sport turida qatnashgan bo‘lsak, Tokio o‘yinlarida 8 ta sport turida vakillarimiz medallar uchun kurashdi. Yaqin yillarda yana qaysi paralimpiya sport turlarida guruhlar, klublar tashkil etish rejalashtirilgan?

– Asosiy vazifalarimizdan biri bu, albatta, yurtimizda paralimpiya sport turlari

geografiasini oshirishdir. Bu borada tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Hozirda parastol tenisi, parabadminton, parashaxmat, aravachadagi qilichbozlik, jamoaviy sport turlaridan ko‘zi ojizlar o‘rtasidagi 5x5 futbol hamda gandbol sport turlari bo‘yicha bo‘limlar tashkil etilgan. Tez orada yozgi paralimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan boshqa sport turlari bo‘yicha bo‘limlarni tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Bundan tashqari qishki sport turlari bo‘yicha ham bo‘limlar ochish masalasi-da zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

– Farmonda O‘zbekiston milliy paralimpiya qo‘mitasi huzuridagi Paralimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti faoliyatini tashkil etish belgilangan edi. Bu bo‘yicha qanday ishlar amalga oshirildi?

– Paralimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti sanoqli davlatlardagina mavjud. Yurtimizda shunday bilim dargohini tashkil etish bo‘yicha Ishchi guruh tuzildi. Institutning tuzilmasi va nizomi ishlab chiqildi. Qaror loyihasi vazirliklar va idoralardan kelishilib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. Yaqin kunlarda institut faoliyati to‘laqonli yo‘lga qo‘yiladi.

– Tokioda o‘tkazilgan paralimpiya o‘yinlari jahon mamlakatlarida imkoniyati cheklangan insonlarga sport bilan shug‘ullanish uchun qanday shart-sharoitlar yaratilganligini ko‘rsatdi. Shu ma’noda xalqaro tajri-

balarni yurtimizda joriy etish, mamlakatimizda paralimpiya sport turlari bo‘yicha nufuzli musobaqalar o‘tkazish bo‘yicha hamkorlik aloqalari o‘rnatilayaptimi?

– Tokioda bo‘lib o‘tgan XVI yozgi paralimpiya o‘yinlari jarayonida yaratilgan sharoitlar, foydalanilayotgan sport anjomlari haqida ma’lumotlar to‘pladik. Bir qator xorijiy mamlakatlarining mutaxassis va mutasaddilari bilan muzokaralar o‘tkazdik. Xabaringiz bor, 2025-yili mamlakatimizda ilk bor yoshlar o‘rtasida Osiyo o‘yinlari bo‘lib o‘tadi. Osiyo paralimpiya qo‘mitasi prezidenti Majid Rashedning joriy yil may oyida yurtimizga tashrifi davomida Toshkentda o‘tadigan yoshlar o‘yinlari doirasida Paraosiy o‘yinlarini O‘zbekistonda o‘tkazish bo‘yicha kelishuvga erishgandik. Hozir bu masalada ishlar davom etmoqda. O‘ylaymanki, 2025-yili Toshkentda yoshlar o‘rtasida o‘tadigan paraosiy o‘yinlari mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiboriga salmoqli ta’sir ko‘rsatib, Osiyo qit’asidagi imkoniyati cheklangan va nogironligi bor ko‘ngli yarim yoshlarning qalbiga quvonch, ertasiga ishonch hissini uyg‘otishdek ulug‘ niyatlarini amalga oshiradi. Bunday ezgulikning O‘zbekistonda amalga oshirilishi xalqimizning azaliy an’analari, qadriyatlarini bilan hamohanglik kasb etishi, shubhasiz.



O‘ZA muxbiri To‘lqin RO‘ZIYEV suhbatlashdi.

MA'NAVIY QADRIYATLAR RIVOJIDA AN'ANAVIY ISLOMNING O'RNI

MULOHAZA

Ma'naviy va diniy qadriyatlarimiz tarixan uyg'un holda rivojlanib takomillashib borgan. Ayniqsa, ma'naviy qadriyatlar rivojida an'anaviy islomning o'ziga xos o'rni bor. Insoniy fazilatlarining eng yuqori cho'qqisi, shubhasiz, odob durdonalaridir. Xususan, bugungi kunda komil insonni kamol toptirishda ma'naviy qadriyatlarining ahamiyati beqiyos.

Bu borada, millatimizning ma'naviy qadriyatlari haqida gap ketganda uzoq asrlar qat'ida yuzaga kelgan, vatanparvarlik, do'stlik, tinchliksevarlik, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik, muruvvat, andisha, or-nomus, halollik, mehr-oqibat, birodarlik va ahil qo'shnichilik munosabatlari kabi ezgu insoniy fazilatlarini alohida qayd etish lozim. Mintaqamizda o'n asrdan ortiq mavjud bo'lib kelayotgan islom, dini xalqimizning ana shunday beqiyos ma'naviy qadriyatlarida chuqur aks etib turadi.

Shu o'rinda bitta nozik nuqtaga e'tibor qaratish zarur. Nafaqat yurtimizda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida deyarli ming yildan beri islom dini bilan bog'liq qadriyatlarimiz hanafiy mazhabi asosida shakllanib kelgan. Hanafiy mazhabining bag'rikenglik tamoyillari shariatga zid bo'lmagan milliy urf-odat va an'analarni saqlab qolishdagi o'rni beqiyos. Biz hozir faxrlanib yodga oladigan ajdodlarimizning aksari mana shu mazhab vakillari bo'lganlar.

Demak, ayta olamizki, milliy va diniy qadriyatlarimiz qatorida hanafiy mazhabi an'analari ham o'ziga xos o'ringa ega.

Yurtimizga chetdan kirib kelayotgan, xalqimizning asrlar davomida shakllangan e'tiqodiga zid bo'lgan turli begona diniy oqim va firqalar nafaqat muqaddas dinimizga, balki bevosita ma'naviy qadriyatlarimizga ham tajovuz ekanini anglab yetishimiz kerak. Yurtimizda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari kabi buyuk ajdodlarimizning bebaho ma'naviy merosini, xususan, hanafiy mazhabi ulamolarning merosini hamda moturidiylik aqidaviy ta'limotini o'rganish va targ'ib qilish markazlari faoliyatiga bejiz asos solinmadi. Demak, hanafiy mazhabi va moturidiylik ta'limoti – xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini bilan mujassamdur. Nafaqat bizning, balki mintaqamizdagi qardosh va dindosh xalqlarning ham muqaddas qadriyatidir. Hanafiy mazhabi an'analarga zid oqim-

lar va firqalarning g'oyalari tarqatish milliy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizga tahdid, deb qaraladi.

Ta'kidlash jozki, mehmondo'stlik, o'zaro hurmat-ehtiro, o'ta-onaning haqlarini ado etish, ijtimoiy hamkorlik, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar, xususan, jamiyatdagi ehtiyomand qatlamlarga ko'maklashish xalqimizga xos ezgu fazilatga aylangan. Jahonda kechayotgan koronavirus pandemiyasining eng og'ir pallasida xalqimizning jipsligi va ahilligi, o'zaro yordamlashishga doimiy tayyorligining jonli guvohi bo'ldik. Agar biz g'arbdan kirib kelayotgan individualizmga yon berib, millatimizga xos bo'lgan jamoaviylik tamoyillarini yo'qotib qo'yganimizda natija qanday bo'lar edi?!

Bugungi rivojlangan jamiyatda, xususan, globallashuv davrida ma'naviy qadriyatlarining o'rni beqiyos. Ma'naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, targ'ib qilish bugungi jamiyatning dolzarb va ustivor

vazifalaridan ekanligi bejiz emas. Ammo kezi kelganda aytish kerak – ijtimoiy hayotda mavjud ayrim illatlarning "o'zbekchilik" deb xaspo'shlanishi mutlaqo o'rinsiz holatdir. Dabdabavozlik, moddiyat-parastlik, har qanday ishda kimo'zarga berilib ketish, riyyokorlik, xo'jako'rsinchilik, jinoyat botqog'iga botirib yuboruvchi tanish-bilishchilik va korrupsiya kabi illatlar millatni va xalqni tanazzulga yetaklaydi. "Topayaptimi, qandini ursin" deyish, "uzumini yeb, bog'ini surishtirmaslik" millatning ofati bo'lib xizmat qiladi. Pul topgan, mol topgan obro'li bo'lavermaydi, qayerdan qay yo'sinda topgan, nimaga sarflayapti, birovning haqqini yeb, o'zini harom-harishga urgan kimsa kabi kishilardagi salbiy illatlar yuzasidan jamoatchilik nazorati o'rnatilishi dardkor. Xususan, fuqarolik jamiyatining muhim asoslaridan biri jamoatchilik nazoratining mavjud bo'lishidir. Odamlar bunday holatlarga befarq va loqayd

bo'lmasliklari, eng asosiysi xayrixoh bo'lib qolmasliklari shart.

Ko'rinib turibdiki, globallashuv jarayonida texnologik rivojlanish bilan birga ma'naviy qadriyatlar ham jamiyat a'zolari uchun suv va havodek zarur. Zero, bugungi rivojlangan davrda jamiyat ma'naviy qadriyatlarisiz ruhan va ma'nan kemik holatga tushib qoladi. Har qanday jamiyatda axloqiy me'yorlarning ahamiyati beqiyos.

Globalashuv sharoitida moddiy chegaralar tobora nisbiylashib, ma'naviy qadriyatlar asta-sekin umumiylashib borishi kuzatiladi. Bunday davrda milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish, milliy o'zlikni anglash va qadriga yetish tushunchalari ustuvor maqsadga aylanadi. Milliy o'zlikni anglash va qadrlash jarayoni ma'naviy qadriyatlarimizning poydevori bo'lib xizmat qiladi.

**Jahongir TOHIROV,
Imom Moturidiy xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi bo'lim
boshlig'i**

Milliy musiqa – hayotbaxsh kuch

O'zbekiston — azaldan jahonshumul musiqiy qadriyatlar diyori. Bu zaminda asrlar davomida shakllangan mushtarak xalq ijodiyoti, mumtoz kuy va ashular, doston-u maqom majmualari milliy qadriyat sifatida sayqal topib, avlodlardan-avlodga o'tib kelmoqda.

Insonning ma'naviy kamolotida, uning ruhan poklanishida mumtoz musiqa san'atining o'rni beqiyos. "Feruz", "Tanovar", "Munajat" kabi milliy kuy-qo'shiqlarimiz o'zining yuksak badiiy va ijtimoiy ahamiyati tufayli bugun ham zavq bilan tinglanyapti. Bular haqiqiy ma'noda umumxalq mulki hamda ma'naviy ozuqasiga aylangan. Aslida jonli musiqiy qadriyatlarimizning hayotbaxsh kuchi ham shunda.

Yana bir jihati, mumtoz kuy-qo'shiqlarini xalqqa, ayniqsa, yosh avlodga yetkazuvchi hofizlarning o'rni alohida. Ular ijodiy ezgulikka yo'g'rilgani bois hamisha e'tibor va e'tirofga loyiq. Ustoz san'atkorlarning ijodiy merosini o'rganish, uni keng targ'ib etish, yosh avlod qalbiga singdirish juda mas'uliyatli, shu bilan birga, sharafli vazifadir.

Bog'cha yoshida bolalar musiqiy ijodkorligining dastlabki kurtagi namoyon



QADRIYAT

bo'la boshlaydi. Iqtidorli bolalar oddiy qo'shiq, o'rgangan raqs, harakat turini mustaqil harakatida mujassamlashtiradi. Turli obrazlarni yangicha talqin etadi, davra o'yinlarida ta'sirchan holatlarni o'ylab topadi. Ijodiy yutuqlaridan zavqlanadi.

Musiqa faoliyatidagi bunday mustaqillik odimlari bolalarimizni yoshligidanoq san'atning sehirli olamiga, zavqlanishga, go'zal ohanglardan bahra olishga, musiqani mehr bilan sevib, imkoniyat darajalarini namoyish etishga chorlaydi. Umuminsoniy qadriyatlarga aylangan mumtoz musiqa san'ati barchamiz uchun birdek qadri. Zero, musiqa san'ati qalb torlari ila anglanadi, tushuniladi va his etiladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida bilim olish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi. Musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan

akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari faoliyati muvofiqlashtirilib, yagona, uzluksiz musiqa hamda san'at ta'limi tizimi shakllandi.

Bugun yangi va zamonaviy maktablarda musiqa madaniyati chuqur o'rgatilyotir. Yangi o'quv dasturlari, darsliklar, uslubiy adabiyotlar yaratildi. Eng muhimi, o'qituvchilar malakasini oshirish va ularni ma'naviy-moddiy rag'batlantirish, maktablarni malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilyapti.

Bolalar musiqa va san'at maktablarining o'qituvchilari respublikamizdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirib, sohadagi yangiliklarni muntazam o'zlashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lyapti.

**Dilnoz JO'RAYEVA,
Bekobod shahridagi 3-maktabning
musiqa madaniyati fani o'qituvchisi**



TUYG'U

YOSHLIK ILHOMI

Ona



Azim bir qishloqning azim bir tilak daraxti bor ekan. Daraxt juda ulkan, uning soyasi o'zidan-da ulkan ekan. Barglari mitti-mitti, xuddi endi barg otgan kabi. Har doim yam-yashil. Navqiron. Har bir inson bitta yoki uchta emas, istaganicha tilaklarining ro'yobini so'rarkan. Asosiysi tilak sohibi shu qishloq odamlari bo'lishi kerak ekan. Chunki bu daraxtni mana shu qishloq odami ekan va daraxt minnatdorchilik tarzida bu qishloq odamlarining har bir tilagini ro'yobga chiqararkan. Mana shu tilaklardan kuch olib o'zi ham osmonlarga bo'y cho'zarkan.

Bu qishloq odamlari ham juda sodd, samimiy insonlar ekan. Daraxtdan keragidan ortig'ini so'rayvermas ekan. Ular inson har bir narsaga o'z kuchi va mehnati bilan yetishishi kerak deya farzandlariga uqtirisharkan. Daraxtga hamma mehribon, uni sug'orib, tagini yumshatib qo'yarkan. Shu tariqa bu azim qishloq va daraxt ko'p asrlar osha yashab kelibdi. Ko'pchilik odamlar o'zlari uchun hech narsa tilamasa ham daraxt uchun, uning yanada navqiron bo'lib o'sishini tilasharkan. Daraxt ham kundan kun bu qishloqning tanti insonlariga mehrliroq bo'lib yuksalarkan.

Daraxt tepalikdan qishloqqa nazar solib, unda yashab o'tgan va hozir yashayotgan insonlarning diyorini ko'rib turarkan. Qanchadan-qancha tilaklarni ko'rdi bu daraxt!

Ezguliklar barq urayotgan har qanday joyda yovuzlikning qadami bo'ladi. Qadami yetdimi, nafasi yetdimi, bir kun tunda daraxtning bir hovliga ko'zi tushdi. Bu hovli egasi yaqinda safardan kelgandi. Yillar davomida bu hovlida ona va bola yashardi. Ota uzoq mamlakatlarga sayohat qilishni shu daraxtdan tilab olib, ketgan edi. Qaytdi, qaytdi-yu bu oilaning tinchi buzildi. Bola onasidan ko'p marta otasini so'radi, uni sog'inganini aytdi, ona ham noiloj daraxtdan uni qaytib kelishini so'radi. Koshki, so'ramaganda edi...

Boshida tunlar bo'ladigan bu urush-janjallar endi kunduzi ham tinmaydigan bo'lib qoldi. Bularni ko'rib daraxt ma'yuslashdi. Barglari to'kildi. Shunda daraxt "Endi ular qanday tilak bilan kelarkin-a?" dedi o'ziga o'zi.

Oradan ancha vaqt o'tdi, ammo bu hovli tinchib ketmadi, aksincha ahvol yanada og'irlashdi. Daraxt o'zi tomon kelayotgan yangi tilaklarni o'ylab, oh urardi. Ildizlari bilan mahkam quchgan yeriga tikilib, koshki oddiy daraxtga aylansam, sen ham oddiy daraxtga bergan boshpanang kabi menga ham boshpana bersang-u biz oddiy yashab o'tsak, asrlar meni charchatdi, dedi.

Shu o'yalar bilan turgan daraxt asta bosh ko'tarib qishloqning unga eltuvchi egri va tor ko'chasidan chopqillab kelayotgan bolakayni ko'rdi. Bu o'sha hovli farzandi. Bu bolakay daraxtga juda mehribon, unga har kun suv keltiradi, yana unga sen tilak daraxti bo'lganing uchun sen bilan do'st emasman, agar sen oddiy daraxt bo'lganingda ham sen bilan do'st bo'lardim, derdi. Mana u halloslab, yuzini yuvgan ko'z yoshlarini artmasdan daraxtga tikilib turibdi. Bolakay daraxtga uzoq tikilib turdi. Keyin duduqlanib, tutulib gapirishni boshladi:

— O-ota-m-m kela-di. Otam keladi. Sendan onamning o'limini so'raydi. Onamning o'limini istaydi u...

Bola bularni qanday aytdi, aytdi-yu tiz cho'kib o'kirib yig'ladi. Daraxt shoxlari orasidan, barglarini silab o'tayotgan shamolni sezmay qotib qoldi. Ular shu holda ancha qolishdi, bolaning ko'zlaridagi yosh quridi, endi faqat hiqillardi. Daraxtga yaqin keldi, uni quchdi. Daraxtning butun tanasini quchishga kichiklik qilgan bu bag'ir asli juda katta, daraxt buni biladi. Undan uyiga borishini, o'yxini havotirga qo'yamasligini so'radi va hammasi yaxshi bo'lishini aytdi.

Bola ketdi. Daraxt tepalikdan bu azim qishloqning suvlari-yu tomlariga, go'daklar kulishi-yu qariyalari askiyalariga muhabbatli boqardi.

Tong otdi. Quyoshni xuddi daraxt shoxlari bilan sudrab olib chiqadigandek, quyosh uning ortidan mo'ralab chiqardi, bugun esa quyosh ko'rilmaydi. Bulutlar egallabdi samoni. Quyoshni izlab tikilgan ko'z beixtiyor daraxtga tushardi-yu oyoqlar shu tomonga chopardi. Tepalik atrofi tumonat odam. Daraxtning to'kilgan yam-yashil barglari shamollarga sovrilib, butun qishloq osmoni uzra uchardi.

Hammaning yuzida so'lg'inlik. Ko'plar oh urib yig'lardi. Daraxt jonsiz, barglarisiz qishloq ahli ko'z o'ngida turardi. Unda tiriklikdan biror belgi yo'q edi...

Bolakay onasining ko'zlarini artarkan, ich-ichidan barini his qilib turardi. Onasining yashashi uchun daraxt o'zini halok qildi. Bu dunyoda onalar yashashi uchun har kim ham jon fido qiladi. Aslida onalarimiz bizning haqiqiy tilak daraxtimiz emasmi?

Mening buvim saksondan oshgan. Esimni tanibmanki, qo'llarida kumush bilakuzuk. Uni onasi o'limidan oldin — buvim 8 yosh paytida qo'llariga taqqan ekan. "O'sha paytlarda menga katta bo'lgan, ammo qo'limdan qo'yamasdim onamdan qolgan yodgorlikni", deydi buvim. Haqiqatan ham, bugungacha biror marta qo'lidan yechganini eslay olmayman. Uxlaganida ham bilakuzukni yechmaydi.

Buvimning 4 farzandi bor, men o'ranchasining farzandiman. Buvim bobomdan erta ayrilgan, oxirgi farzandi 1 yoshga ham to'lmagan ekan. 4 farzandni ayol boshi bilan yolg'iz ulg'aytirgan, uyli-joyli qilgan.

Buvimning xonasi mening xonamning to'grisida, dahlizning oxirida. Har kecha buvim onasini eslab yig'lashini eshitaman. Haqqiga duolar qiladi. O'zi necha farzand, nevara, evaralarga ona. Har bir ona o'z onasini eslarkan, bu-uzilmas ip nimadan yaralgan deya o'ylay ketaman.

Bolaligimda buvimning bo'ynidan quchib uxlagan kunlarim ham onasining haqqiga duolar qilib, keyin uxlardi. "Eh, mening yorug' dunyolarga sig'magan, bolalari baxtini ko'rolmagan mushtipar, onaginam", derdi buvim tinmay. Mana oradan 20 yil o'tibdi hamki, bu so'zlarning birortasi o'zgarmadi. Bu mushtipar ona buvim uchun shu qadar azizki, 8 yil emas, 85 yil shu ona bag'rida yashagandek.

Bu dunyoda diydoriga zor qilib ketgan onasining bag'rida o'tgan bir kechaga, onasiz yashagan barcha kunlarini almashishga tayyor yashaydi. Onaning muhabbati ulug', cheksiz.

Asal RAHIMOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti
talabasi

Fidoyilar
tug'ilgay

Alpomishga o'xshayman juda,
Ko'zlarimda Barchin nigohi.
Sohibqiron so'zidek o'tkir,
Chapdast bo'lib tug'ildim chog'i.

Vatan bo'lib ketgan Kubroning,
G'anim yetmas qo'rg'oni o'zim.
Hindukushda Bobur Mirzoning
Sog'inch to'la fig'oni o'zim.

Shirin o'zim, Layli o'zimman —
Navoiyning farishtalari.
Dardli yo'lman Mashrab bobomdan
Balx doriga yetmoqlik sari.

Yo'qlaganda Ulug'begini
Yulduzlari to'kilgan tunman.
Ne bo'lsa ham, boshini mag'rur
Tutib kelgan bag'ri butunman.

Yuragimda qolmagan tugun,
Munosiblik istar tan-u jon.
Seni yana yuksaltirmoq-chun
Fidoyilar tug'ilgay, Vatan!

Ozoda QOBULOVA,
Toshkent shahridagi 96-mak-
tabning 10-sinf o'quvchisi

QATRA


Pinhon
kuyechi

Oftobda qolib ketgan sariq "varaqlar" eshigimiz oldidagi ariqdan oqib o'tmoqda. Egilib oldim. Unga boqib, muhabbat so'zini kuyga soldim.

Voy, do'lana! Saf-saf, sap-sariq munchoq. Ijodkor ilhomi, xonanda so'zi — senda mujassam. Go'yo insoniyatga bu hayotning o'tkinchiligi-yu, vaqtning peshqadam ekanligini anglatayotgandek...

Kuz. Kuzataman, tabiat husni-da senga payvasta, sening izmingda...

Qirmizoy HAKIMOVA



YURTIMIZDA TAPPICHILIK

uning bugungi holati va
rivojlanish istiqbollari
YOXUD BIR QOP

TAPPI IO MING SO‘M

O‘zbek xalqi azalidan mehmondo‘st, samimiyligi, qo‘li ochiqligi bilan ajralib turadi. Uyida yeyishga noni bo‘lma-gan paytlar ham, mehmon kelib qolsa, dasturxon noz-u ne‘matlarga to‘ladi. Axir xalqimizda “Mehmon otangdek ulug‘” degan gap bejiz aytilmagan.

Davlatlar o‘rtasida ham shunday “mehmondo‘stlik”-ka misollar topiladi. Har gal o‘zbeklar qo‘li ochiq xalq bo‘ladi deyishsa, ko‘zga ko‘rinmay qolayotgan ba‘zi muammolar hayolimga keladi. Masalan, Erkin Vohidovning “O‘zbekim” she‘rida “Gazni Uralga berib, tappi yoqqan o‘zbekim” degan misra bor. Inson yashashi uchun birinchi navbatda unga ozuqa kerak deyishadi. Ammo o‘zbek xalqi uyiga odam kelsa, nonini ham shunga ilinadi. Xo‘p, nonni yana topish, sotib olish mumkindir. Ammo insonlarning yashashi uchun qulaylik yaratadigan gaz muammosi qachon tugaydi?

Ba‘zi qishloqlar allaqachon gazning nomini unutib, unga ro‘yo misoli qaraydi, hech ushalmaydigan orzudek, allaqanday

entikib gapiradi u haqda. Bu esa chekka qishloqlarda tappichilikning hamon amalda bo‘lishiga, uning “texnologiyasi” rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda. Yaqinda bir tanishim qishloqda tappi biznesi rivojlanganini, 1 qop tappi narxi 10 ming so‘m ekanligini aytib qoldi. Bu biznesdan ko‘proq ayollar foyda ko‘rayotganmish, hatto bunga ko‘nikib qolgan ham emish...

O‘zbekiston aholisining qariyb 40 foizi gazdan foydalanmaydi. Ular orasida gaz tarmog‘idan uzib tashlangan, hatto umuman yetib bormagan qishloqlar ham bor. Ammo insonlardagi ko‘nikuvchanlik unlarni gazsiz yashashga ham o‘rgatgan. Gaz yo‘q joylarda uning o‘mini tappi egallagan. Tappi gaz, o‘tin o‘rnida ishlatilib, ko‘pchilikning og‘irini yengil qiladi.

Gaz yo‘qligiga ko‘nikkan qishloq ayollari uchun bu sharoitning umuman qiyinchiligi yo‘q. Misol uchun, Madina opa Ergashova ham qishloqqa kelin bo‘lib kelganiga 20 yildan oshdi. U shunday deydi: “Kelin bo‘lib kelganimda hech bir ishni qila olmasdim. Ammo hozir ro‘zg‘or ishlari, shu jumladan, tappi qilish ham kundalik yumushlarimdan biriga aylangan. Qaynonam meni tushunib hamma ishlarni o‘zi o‘rgatgan. Boshida aynan tappi qilishdan jirkanish, qo‘limdan hidi ketmay qoladi-ku, degan fikrlar menda ham bo‘lgan. Ammo inson hamma narsaga ko‘nikuvchan bo‘ladi. Hozir hamma ish qo‘limdan keladi. Tappi qilishga ham majburiyatdek qarayman. Chunki ko‘p hollarda foyda beradi. Non yopishdan oldin yoki qishda pechkaga o‘tin yoqqanimizda ancha asqotadi. Shu paytgacha uning hech bir zararli tomonini ko‘rmadim”.

Ba‘zida tappidan jirkanish holatlarini ko‘ramiz, qo‘limdan hidi kelib qoladi-ku degan so‘zlarni eshitamiz. Ammo ayrimlar jirkanib, qilishga qo‘li bormaydigan tappi millionlan yurtodoshlarimizning hayot-mamot masalasidek juda muhim. Usiz ovqat, non pishmaydi, qishda uyni isitib bo‘lmaydi, axir.

Tappi molning go‘ngiga somon yoki xashak aralashirib quyosh yaxshi tushadigan joyga qo‘yib quritiladi. Ba‘zi joylarda esa katta yalangliklarga yoyib qo‘yiladi. Qishda o‘tin o‘rnida ishlatilib, uyni isitishda yaxshi samara beradi. Hatto ba‘zi qishloqlarda “Gazsiz tappi bilan ulg‘ayotgan avlod” degan gaplar ham bor emish.

— Maktabni isitish uchun qishda o‘quvchilar o‘zlari bilan tappi olib kelishadi, — deydi qoraqalpog‘istonlik Ziyoda Mаметmurodova. — O‘zim shahardan kelin bo‘lib tushganman. O‘qituvchilik faoliyatim

davomida qish kunlarida o‘quvchilar navbat bilan o‘tin, tappi olib kelishadi. Ba‘zan ularga achinaman. Chunki ularning tengdoshlari zamonaviy maktablarda o‘qib yurgan paytda bular kichik jussasi bilan mehnat qilib, o‘zlari uchun sharoit yaratishmoqda...

Bunday maktablar asosan aholisi kam joylarda quriladi. Suhbatdoshimiz o‘zining yashab turgan tumanini oshkor etishimizni xohlamadi. Ularning ham yaxshi yashagisi keladi. Eng achinarlisi, yaxshi yashashga hammaning birdek haqqi bor. Ulg‘ayib kelayotgan yosh avlod ham bundan mustasno emas.

Rivojlanib borayotgan hayotimizda “tappi texnologiyasi” ham zamonaviy texnologiyalar misoli shiddat bilan rivojlanmoqda. “Yangi O‘zbekiston”ning ko‘zga ko‘rinmay qolayotgan eskiligi ham shu bo‘lsa kerak.

Mashhura NASRIDINOVA

YOSHLAR OVOZI

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON
YOSHLAR ITTIFOQI
MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR:

Hamza
ABDULLAYEV

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda
№ 0242 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.

MAS‘UL KOTIB:

Yelena KALININA

NAVBATCHI MUHARRIR:

Iqbol PARDAYEVA

MUSAHHIB:

Shahribonu RAHMATOVA

Gazeta materiallari tahririyat
kompyuter markazida terildi va
sahifalandi.

Tahririyat manzili:

100083, Toshkent, Matbuotchilar
ko‘chasi, 32.

Telefonlar:

(71) 233-22-16.
(71) 236-79-95.



Qizil rangda qilingan
QR kodni telefoningizda oqish
orqali qiling.



“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bozomaxonasida, A-3 formatda chop etildi.

Hajmi — 3 bosma taboq.
Kerakli ma’lumot: Buyuk Taron ko‘chasi, 41.

Indeks: 203, 3203

Bahosi kelishgan narxda.

Buyurtma G-955

Adadi — 725

Boshiga topshirilish vaqti — 21.00

Topshirildi — 20.00